


## JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

Soni – birlikda

2018 yil yanvar-mart holatiga




- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali
- Davlat statistika qo'mitasi Raisi virtual qabulxonasi orqali
- Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan
- Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali
- To'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan yozma murojaatlari
- Qo'mita rahbariyatining shaxsiy qabulidagi og'zaki murojaatlari

Davlat statistika qo'mitasiga **2018 yilning yanvar-mart** holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan **470 ta** murojaatlar kelib tushgan.

Shu jumladan, kelib tushgan murojaatlarning **20** tasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi orqali, **29** tasi Davlat statistika qo'mitasi Raisining virtual qabulxonasi orqali, **18** tasi Yagona Interaktiv davlat xizmatlari portalidan, **70** tasi Qo'mitaning elektron veb-sahifasi orqali, **42** tasi og'zaki va **291** tasi to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan murojaatlar.

## Murojaatlar: (mazmun-mohiyat bo'yicha)

Ulushi—foizda



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra, **202** tasi (*jamiga nisbatan 43,0 foiz*) Respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish statistik ko'rsatkichlari ma'lumotlarni taqdim etish yuzasidan, **39** tasi (*8,3 foizi*) korxona va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, statistik kodlar berish masalasi yuzasidan, **96** tasi (*20,4 foizi*) nafaqa hujjatlarini rasmiylashtirish uchun ish stoji, bsh haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan, **55** tasi (*11,7 foizi*) statistik hisobotlarni to'ldirish va taqdim etish bo'yicha tushuntirish berish yuzasidan, **45** tasi (*9,6 foizi*) o'z faoliyatini amalga oshirish uchun amaliy yordam olish yuzasidan, **10** tasi (*2,1 foizi*) Qo'mita vakolatlari va faoliyati bo'yicha ma'lumot olish yuzasidan, **23** tasi (*4,9 foiz*) boshqa masalalar yuzasidan tashkil etган.

## Hududlar bo'yicha taqqoslama tahlili


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga asosiy qismi Toshkent shahridan **346** ta (*o'tgan yilning shu davrida 476 ta*) murojaatlarni tashkil etgan. Shuningdek, Toshkent viloyatidan **32** ta (**51 ta**), Namangan viloyatidan **8** ta, Farg'ona viloyatidan **9** ta, Andijon viloyatidan **8** ta, Samargand viloyatidan **6** ta, Buxoro viloyatidan **8** ta, Qashqadaryo viloyatidan **12** ta, Navoiy viloyatidan **6** ta, Sirdaryo viloyatidan **3** ta, Surhondaryo viloyatidan **5** ta, Qoraqalpog'iston Respublikasidan **3** ta, Xorazm viloyatidan **14** ta va boshqa hududlardan **1** ta murojaatlar kelib tushgan.

## Murojaatlarning ko'rib chiqish holati


Soni – birlikda



Davlat statistika qo'mitasiga kelib tushgan murojaatlarning **344** tasiga chora ko'rildi, **84** tasi tushuntirildi, **42** tasi ko'rib chiqilmoqda, rad etilgan murojaatlar mavjud emas.

## Murojaatlar turlari bo'yicha

Soni – birlikda



Tahlillarga ko`ra, murojaatlarning jamiga nisbatan **46,2** foizi (217 ta) jismoniy shaxslar va **53,8** foizi (253 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to`g`ri kelgan.

## *Eslatib o`tamiz:*

O`z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog`liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma`lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi,



- "Ishonch telefon"lari:  
• (71) 230-81-80/ 230-81-82

- Davlat statistika qo`mitasi rahbariyatiga bevosita murojaat etish:  
• (71) 230-81-81

- Pochta manzili - [info@stat.uz](mailto:info@stat.uz)
- O`zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi  
[pm2.gov.uz](http://pm2.gov.uz) orqali murojaat etishingiz mumkin.

### **Davlat statistika qo`mitasi**

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash va ijro intizomi nazorati boshqarmasi

**Nashr uchun mas`ul:**

**M.Normatov**

**(0371) 230-81-24**